



INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING IMKONIYATLARI

Eshmuratov Muzaffar Elamanovich

Termiz davlat universiteti

PhD mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda interaktiv o'qitish metodlarining didaktik va amaliy afzalliklari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalar faolligini oshirish, matn bilan ishlashda kontekstual tahlilni kuchaytirish va o'qish strategiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Eksperimental ma'lumotlar va o'zbek tadqiqotchilari tajribasiga asoslangan holda, maqolada metodik tavsiyalar ham berilgan.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, o'qish ko'nikmasi, interaktiv metodlar, matn tahlili, pedagogik yondashuv*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rganish jarayonini faollashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida o'qish ko'nikmasi esa bu jarayonning markaziy komponenti bo'lib, axborotni tahlil qilish, mazmunni tushunish, muloqotga kirishish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy yondashuvlarda o'qish faolligini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmagan, matnlar bilan ishlash asosan fonetik va grammatik tahlilga qaratilgan bo'lib, bu esa talabada chuqur anglash va fikr yuritish ko'nikmalarining shakllanishiga to'siq bo'lgan.

Interaktiv metodlar esa talabani faollashtiradi, uni matn asosidagi tahlilga jalb etadi, muloqot va bahs-munozaraga tayyorlaydi. Bu metodlar orqali o'qituvchi va talaba o'rtasidagi didaktik aloqa ikki yo'nalishda, shaxsga yo'naltirilgan tamoyil asosida quriladi. Shuning uchun, hozirgi bosqichda o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonda ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, til kompetensiyasi, metodik yondashuvlar, psixolingvistik asoslar va til o'rganishdagi madaniy faktorlar bilan bog'liq. Ushbu adabiyotlar ingliz tilida o'qish ko'nikmalarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi.

Avvalo, ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirishda talabalar tayyorgarligining boshlang'ich bosqichi muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. S.Nurmatov o'zining "Ingliz tili o'qitish metodikasi" nomli ishida ingliz tili o'rgatishning

bosqichma-bosqich tashkil etilishi, o'quvchilarda avval fonetik, so'z boyligi, keyin esa sintaktik va semantik tushunishni shakllantirish zarurligini qayd etadi⁶. Bu metodik yondashuv o'qish ko'nikmasi asoslarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shermatova Z. tomonidan olib borilgan tadqiqotda talabalar ingliz tilida matnlarni tushunishda eng ko'p duch keladigan muammo sifatida so'z va iboralarning kontekstual ma'nosini anglay olmaslik ko'rsatilgan. Muallif rus tilidagi matnlar ko'pincha idiomatik iboralarga, madaniy konnotatsiyalarga boy ekanini, bu esa o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalarga tushunarsiz bo'lib qolishini isbotlaydi⁷.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilida o'qish malakasini o'rgatishda zamonaviy metodik vositalardan foydalanish zarurligi ham adabiyotlarda keng muhokama qilingan. Jumladan, S.Tursunova "Interfaol metodlar asosida ingliz tili darslarini olib borish" nomli maqolasida talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlash, kontekstual tahlil va fikr almashinuvi vositasida o'qish kompetensiyasini shakllantirish yo'llarini ko'rsatadi⁸. Muallif interaktiv topshiriqlar, loyihaviy ishlar, munozara asosidagi tahlil metodlarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori natijalar berganini tajriba asosida isbotlagan.

Bundan tashqari, S.Jo'raqulova ingliz tilidagi ilmiy matnlar bilan ishlash metodikasi haqida yozar ekan, talabalar matn strukturasi va mavzu asosidagi g'oyani ajrata olish malakalarini yetarlicha egallamaganini aniqlagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar matndan asosiy ma'lumotni ajrata olishda 35 foizdan ortiq xatoliklarga yo'l qo'ygan⁹. Bu holat, ayniqsa, rus tili ikkinchi til sifatida o'rgatilayotgan guruhlarda keskinroq namoyon bo'ladi.

T.Karimov esa ingliz tilida o'qish ko'nikmasi madaniyatlararo kompetensiya bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. U o'z maqolasida o'quvchilar madaniy tafovutlarni tushunmagani uchun rus tilidagi matnlarni noto'g'ri talqin qilish holatlari ko'p uchrashini yozgan. Bu fikr ingliz tilidagi matnlar, ayniqsa, adabiy va publitsistik janrlar konnotatsiyasini to'g'ri anglash zarurligini anglatadi¹⁰.

G.Rustamova esa psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil olib boradi. Unga ko'ra, o'qish jarayonida talabalar miyasida faol semantik modellar shakllanishi uchun oldindan lug'aviy tayyorgarlik, tushunishga oid taxminlar va kontekstni aniqlash reflekslari rivojlangan bo'lishi kerak. Bu reflekslarning shakllanmaganligi matnni tahlil qilishga to'sqinlik qiladi¹¹. Muallif shuningdek, psixologik to'siqlar - ya'ni

⁶ Nurmatov S. Rus tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.

⁷ Shermatova Z. Rus tilida matnlarni kontekstual anglash muammolari. // Filologiya fanlari jurnali, №2, 2022.

⁸ Tursunova S. Talabalar bilan interfaol rus tili darslari olib borish yo'llari. // O'zbek tilshunosligi muammolari, №1, 2023.

⁹ Jo'raqulova S. Rus tilidagi ilmiy matnlar bilan ishlash metodikasi. – Samarqand: SamDU ilmiy axborotnomasi, №3, 2022.

¹⁰ Karimov T. Madaniy tafovut va rus tilidagi matnlar tahlili. // Til va madaniyat, №4, 2021.

¹¹ Rustamova G. Psixolingvistik yondashuvlar asosida o'qish kompetensiyasini shakllantirish. // Filologiya va pedagogika, №1, 2022.



qo'rquv, ishonchsizlik, norozilik kabi holatlar ingliz tilidagi o'qish faoliyatiga salbiy ta'sir qilishini eksperimental ravishda ko'rsatgan.

Yana bir muhim manba sifatida R.Mahmudov tomonidan tayyorlangan "Ingliz tilidagi matnlar ustida ishlash uslublari" risolasini keltirish mumkin. Unda o'qish strategiyalari, metodlari keng tahlil qilingan. Ushbu strategiyalar yordamida talabalar murakkab matnlarda ma'lumotni tez topish, asosiy fikrni ajratish va mazmunni umumlashtirish malakalarini rivojlantirishi mumkinligi qayd etilgan¹².

Interaktiv metodlar rus tilini o'rgatishda an'anaviy o'qitish modellaridan farqli ravishda, talabani faol ishtirokchi sifatida o'quv jarayoniga jalb etishga yo'naltirilgan.

Bu esa, o'qish ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi¹³. Ta'lim jarayonida interaktiv texnologiyalarni (klaster, "Insert", "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", rolli o'yinlar va boshqalar) qo'llash talabalarning matn bilan mustaqil ishlash, fikr yuritish, asosiy g'oyani ajratish va xulosa chiqarish salohiyatini oshiradi¹⁴.

Ingliz tilidagi matnlarni ongli o'qish talabani faqat leksik va grammatik bilimlarini emas, balki tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi kognitiv faoliyatini ham faollashtiradi. Bu esa ta'limning kompetentlikka asoslangan modellari bilan uyg'unlashadi.

Bunday yondashuv haqida N.D.Galskova ta'kidlaydi: "Interaktiv usullar talabalarning tilni faqat bilish emas, balki undan foydalanish qobiliyatini shakllantiradi"¹⁵.

Shuningdek, o'zbek tadqiqotchisi D.R.Axmedova ta'kidlaganidek, talabalar rus tilida o'qishni o'rganish jarayonida nafaqat leksik va sintaktik bilimlarga, balki motivatsiya, mulohaza qilish va matnni tuzilmaviy tushunish qobiliyatiga ham ega bo'lishlari zarur¹⁶.

Uning fikriga ko'ra, interaktiv metodlar orqali dars olib borilgan guruhlarda olingan natijalar an'anaviy darslarga qaraganda yuqori bo'lgan.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish - bu nafaqat dars jarayonini jonlantirish, balki talabani nutqiy, madaniy va axborot bilan ishlash salohiyatini ham rivojlantirish vositasidir¹⁷. Shu sababli, ingliz tilida o'qish ko'nikmasini takomillashtirishda interaktiv metodlarning

¹² Mahmudov R. Rus tilidagi matnlar ustida ishlash uslublari. – Toshkent: Fan, 2023.

¹³ Ларин А. А. Интерактивные методы обучения: теория и практика. - Москва: Юрайт, 2021. - 288 с.

¹⁴ Пассов Е. И. Коммуникативная методика обучения иноязычному чтению. - Москва: Просвещение, 2019. - 192 с.

¹⁵ Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. - Москва: Академия, 2017. - 336 с.

¹⁶ Axmedova D. P. Rus tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanişning samaradorligi // Til va adabiyat ta'limi. - 2022. - №3. - B. 45-49.

¹⁷ Турсунова М. Ю. Рус тили дарсларида ўқувчиларнинг ўқиш малакасини шакллантиришнинг замонавий усуллари // Таълим ва тараққиёт. - 2021. - №3. - B. 101-105.



samaradorligini nazariy va amaliyot jihatdan asoslash ta'lim metodologiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir¹⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmatov S. Ingliz tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2021.
2. Shermatova Z. Ingliz tilida matnlarni kontekstual anglash muammolari. // Filologiya fanlari jurnali, №2, 2022.
3. Tursunova S. Talabalar bilan interfaol ingliz tili darslari olib borish yo'llari. // O'zbek tilshunosligi muammolari, №1, 2023.
4. Jo'raqulova S. Ingliz tilidagi ilmiy matnlar bilan ishlash metodikasi. - Samarqand: SamDU ilmiy axborotnomasi, №3, 2022.
5. Karimov T. Madaniy tafovut va ingliz tilidagi matnlar tahlili. // Til va madaniyat, №4, 2021.
6. Rustamova G. Psixolingvistik yondashuvlar asosida o'qish kompetensiyasini shakllantirish. // Filologiya va pedagogika, №1, 2022.

¹⁸ Кодирова Г. Т. Рус тилини ўрганишда ўқув мотивациясини ошириш йўллари // Филологик тадқиқотлар. - 2021. - №4. - Б. 75-80.